

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	203
M.M.Temirova	
O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari	208
Q.Sulaymonov	
Iqtisodiyotni globallashtirishda informatsiyaning o'rni	213
X.E.Xodjamberdiyev	
Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri.....	216
A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev	
Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi (Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida).....	222
M.M.Abdullayeva	
Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi (Namangan viloyati misolida)	226
F.Abdurasulova	
Buxoro amirligida diniy ta'limning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi davrida rivojlanishi	232
A.A.Aloxunov	
Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati	236
M.B.Siddiqov	
Ikkinchi jahon urushi yillarida pensiya tizimi	241
G.A.Abdug'aniyeva	
Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi	247
N.V.Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi.....	252

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov	
Xudoyberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati	257
G.V.Abdullayeva	
Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi.....	260
S.Q.Mamatova	
Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari.....	267
N.Y.O'roqova	
Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini	271
D.A.Qahharova	
Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	280
S.A.Xaqnazarova	
An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar	287
M.Islomova	
Hayot haqiqati va badiiy tafakkur	290
A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova	
Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida)	294
Y.B.Eshmatova	
Turk hikoyachiligida an'ana va yangilanishlar sintezi.....	299
Д. О.Турдалиев	
Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации	303
F.B.Sultonqulova	
Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiati	306
G.A.Jurayeva	
Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	310



UO‘K: 711.4(575.86)“04/14”

FARG‘ONA VODIYSI SHAHARSOZLIK MADANIYATINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHI (SHO‘RABASHOT DEHQONCHILIK MADANIYATI MISOLIDA)**ХАРАКТЕРИСТИКА И РАЗВИТИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (НА ПРИМЕРЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ ШОРАБАШОТ)****CHARACTERISTICS AND DEVELOPMENT OF INDIVIDUAL CULTURE OF FERGANA VALLEY (EXAMPLE OF SHORABASHOT AGRICULTURAL CULTURE)****Abdumuxtor Abduxalimovich Hakimov¹** ¹Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti o‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri t.f.f.d (PhD), dotsent**Oybek Ubaydullayev Sherzodbek o‘g‘li²** ²Andijon davlat universiteti tarix fakulteti magistranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada, islom sivilizatsiyasiga qadar Farg‘ona vodiysi hududida joylashgan va vodiylar tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan antik davrga tegishli hisoblangan Sho‘rabashot arxeologik yodgorligining tashkil topishi, geografik joylashuvi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy holatlari, arxeolog olimlarining olib borgan tadqiqotlari tahlil qilingan. Sho‘rabashot yodgorligi arxeologik jihatdan muhim hududdir. Bu yerda tashkil topgan urbanizatsiya jarayonlari hamda boshqa antik davri shaharlari o‘rtasidagi aloqalar tilga olingan. Uning o‘rganilish tarixi hamda olimlar xulosalari asosidagi ma‘lumotlar atroflicha yoritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются организация, географическое положение, социально-политические, экономические условия археологического памятника Шорабашот, который расположен в регионе Ферганской долины до появления исламской цивилизации и считается принадлежащим к древнему периоду, имеющему особое значение. Значение в истории долины, проанализированы исследования, проведенные археологами. Памятник Шорабашот является археологически важной территорией. Упомянуты сформировавшиеся здесь процессы урбанизации и связи между другими древними городами. Подробно освещена история его изучения и информация, основанная на выводах ученых.

Abstract

This article discusses the organization, geographical location, socio-political, economic conditions of the archaeological site of Shorabashot, which is located in the Fergana Valley region before the advent of Islamic civilization and is considered to belong to the ancient period of particular importance. Significance in the history of the valley, the studies conducted by archaeologists are analyzed. The Shorabashot monument is an archaeologically important territory. The processes of urbanization formed here and the connections between other ancient cities are mentioned. The history of its study and information based on the findings of scientists are covered in detail.

Kalit so‘zlar: Sho‘rabashot, Xitoy, Farg‘ona vodiysi, migratsiya, shahriston, ark, metallsozlik, kulolchilik, Xak, steatit toshi, urbanizatsiya, artefakt, istehkom.

Ключевые слова: Шорабашот, Кутай, Ферганская долина, миграция, город, арка, металлоконструкции, керамика, хак, стеатитовый камень, урбанизация, артефакт, фортификация.

Key words: Shorabashot, China, Fergana Valley, migration, city, arch, metal structures, ceramics, hack, soapstone, urbanization, artifact, fortification.

KIRISH

Farg‘ona vodiysi – atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan ulkan makondir. Bu yerning birgina g‘arbiy tomoni ochiq bo‘lib, uncha katta bo‘lmagan kenglik bilan Mirzacho‘lga tutashgan. Vodiylar atrofidagi tog‘lar o‘z hududini bir tomondan issiq va sovuq iqlim oqimidan saqlasa, ikkinchi tomondan, o‘z bag‘rida O‘rta Osiyoning asosiy suv manbai – Sirdaryoning boshlanishiga zamin yaratgan.

Eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarga oid noyob artefaktlarning ayrim topilmalari ma‘lum. Jumladan, vodiylar janubi - So‘xdan topilgan toshdan yasalgan ilohiy ashyo (tosh tumor), shimolda

TARIX

kashf etilgan Xak (Xaq, Xok) va Aflotun xazinalari. Mazkur artefaktlar qayerda tayyorlanganligi aniq - ravshan isbotlanmagan bo'lsa-da, ularning ayrimlari hatto Elamdan olib kelingan bo'lishi mumkin, degan farazlar mavjud[1. B – 14]. Shubhasiz, mazkur davrga kelib Farg'onada hayot barx urgan, vaqti kelib bu yerlardan hozirda qalin sariq tuproq qatlamlari ostida yotgan ilk dehqonchilik yodgorliklari topilishi mumkin. Qirg'iz respublikasi Jalolobod viloyati O'zgan shahri yaqinidagi Shag'im qadimgi mozori topilmalari, Andijon viloyati Qorasuv shahridan chiqqan «tarozi toshi» (yana Dalvarzindan tosh haykal, steatit toshidan idish) bunday faraz qilishimiz uchun asos bo'la oladi[2. B – 34].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Urbanizatsiya jarayonlari-shaharlarning paydo bo'lish tarixi, ularning jamiyat rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etish tarix fanining eng dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Ma'lumki, shaharlar paydo bo'lgandan e'tiboran jamiyat uchun alohida o'rin egallay boshlaydilar. Shaharlar ta'rifisiz insoniyat rivojlanishining muhim bosqichlarini tasavvur qilish qiyin. Urbanizatsiya deganda: bir tarafdin shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, ikkinchi tarafdin ularning jamiyat rivojlanishi ta'siri tushuniladi. Insoniyat tarixi rivojida urbanizatsiya jarayonlari barcha joylarda birdek kechmagan va ushbu jarayon bir necha bosqichdan iborat. Shumer, Elam va Hindistonning ilk shaharlari eramizdan avvalgi IV-III ming yilliklarda, Xitoyda esa - eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarda vujudga kelgan. Shimoliy Yevropada ushbu jarayonlar birmuncha keyinroq - eramizning I ming yilligi o'rtalarida kechgan[3. B – 10]. O'rta Osiyo ilk shaharlarining o'ziga xos xususiyatlariga oid turli nuqtai nazarlar A.A.Asqarov, Yu.F.Buryakov, E.V.Rtveladze, V.M.Masson Yu.A.Zadneprovskiy N.N.Negmatov, T.Sh.Shirinov, A.S.Sagdullaev, B.X.Matboboev, B.J.Eshov, O'.Abdullaev, A.A.Xakimov va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida aks etgan. Eramizdan avvalgi IV-II ming yilliklardagi urbanizatsiya jarayonlari har xil tadqiqotlarda ikki bosqichdan sakkiz bosqich oralig'idagi davrga ajratilgan. Xususan, V.M.Masson ushbu jarayonlarni ikki bosqichga jamlagan-Qadimgi Sharq bosqichi (eramizdan avvalgi III ming yillik oxiri - I ming yillik o'rtalari) hamda antik bosqich (eramizdan avvalgi IV asr - eramizning IV-V asrlari). N.N.Ne'matov eng qadimgi davr (o'troq dehqonchilik turmush tarzi asta-sekin rivojlangan vaqt)dan, to XX asrgacha bo'lgan vaqtni qamrab oluvchi sakkiz bosqichni aytib o'tadi. Urbanizatsiya jarayonlarining taklif qilinayotgan bosqichlari ayrim hollarda bir-biriga zid keladi, shu bois ularni kamchiliklardan holi emas, deyish mumkin. Buni tushunish mumkin, zero yuqoridagi xulosalar mahalliy manbalar negizida yaratilgan bo'lib, asosan mualliflarning shaxsiy izlanishlari natijalariga asoslanadi. Mazkur qarashlarda vaqt va urbanizatsiya bosqichlarining soni turlicha talqin etilsa-da, barchasida bir jihat bo'yicha yakdillik kuzatiladi, ya'ni Markaziy Osiyo shaharlari shakllanishi boshqa hududlarga nisbatan ancha erta boshlangan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Miloddan avvalgi XIV-VII asrlarda Farg'ona vodiysida qadimgi dehqonchilik Chust madaniyati keng tarqaladi. Ushbu madaniyat sohiblari asosiy unumdor hududlarda guruh-guruh bo'lib joylashgan 90 ga yaqin aholi istiqomat joylarida kun kechirganlar.

Farg'onaning qadimiy shaharlari o'z rivojlanishida **ikki bosqichdan** o'tganlar. **Birinchi bosqichda** (miloddan avvalgi IX-IV asrlar) Dalvarzin, Chust (Buvonamozor) va Eylaton kabi shaharlar vujudga kelib rivoj topgan. **Ikkinchi antik bosqichda** (miloddan avvalgi IV - milodning IV asrlari) shaharsozlik madaniyati yanada yuqori darajaga ko'tariladi. Eylaton, Sho'rabashot, Mingtepa, Quva, Andijon va boshqalar kabi shaharlar paydo bo'ladi va taraqqiy etadi.

Qadimgi shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi ilk davlatchilikning paydo bo'lish tarixi bilan bevosita va uzviy bog'liq. Aytish joizki, Chust madaniyati yodgorliklaridagi murakkab bo'lmagan sug'orish inshootlari va alohida qilib qurilgan ark, rivojlangan mudofaa istehkomlari tizimi, shuningdek, hunarmandchilik ishlab chiqarishining shakllanishi (ma'lum ma'noda bozor uchun ko'p sonli tovar ishlab chiqarish) davlatchilikning paydo bo'lishidan darak beradi. Shulardan kelib chiqib, urbanizatsiyaning birinchi davrida vodiya ilk davlatchilikning dastlabki belgilari yuzaga keladiki, buni voha davlatchiligi sifatida ta'riflash mumkin. Bunday bunyodkorlik jarayonlarini faqat davlat maqomiga ega bo'lgan tashkilotgina (uyushma) amalga oshirishga qodir edi [1. B – 44]. Keltirilgan ma'lumotlarga tayanib hamda Farg'ona arxeologik komplekslarini Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona bilan taqqoslagan holda mazkur hududda ham ilk davlatchilik mavjud bo'lganligini e'tirof etishimiz mumkin. Aynan shu davrda O'rta Osiyoda davlat maqomiga ega shaharlar yuzaga kelganligini, ular asosida esa keyinchalik miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda nisbatan yirik ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar

paydo bo'lganini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Shu kabi jarayonlarni Farg'ona vodiysida ham kuzatish mumkin. Yuqoridagilar Dalvarzinda qal'a-shahar, dehqonchilik vohalari va ularning madaniy va iktisodiy markazlar sifatidagi yirik yodgorliklarning mavjudligi dastlabki davlat birlashmasi bo'lganligidan dalolat beradi. Bayon etilganlarga yakun yasab ta'kidlash mumkinki, 2002-yildayoq B.X.Matboboev miloddan avvalgi VIII- VII asrlarda Farg'ona vodiysida voha davlatchiligi mavjud bo'lgan degan xulosaga kelgan.

Farg'ona vodiysi yodgorliklarining so'nggi bronza va ilk temir davridagi tarqalish voha tizimini birinchi marta Yu.A.Zadneprovskiy ishlab chiqqan. So'nggi vaqtlarda T.Sh.Shirinov tomonidan O'rta Osiyoda voha davlatchiligi mavjud bo'lganligi to'g'risida faraz ilgari surilgan. B.X.Matboboev ham bu borada salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda [1. B – 22]

Manbalarning dalolat berishicha, antik davrdayoq bu hududda yuqori taraqqiy topgan shahar madaniyati gullab-yashnagan. Xitoy solnomasida aytilishicha: «Davanda (Farg'onada) 70 taga yaqin katta va kichik shaharlar bor; ularda bir necha yuz minglab aholi istiqomat qiladi» [4. B – 115]. Antik davrda yoki miloddan avvalgi IV asrdan to milodning IV asrlarida vodiylar shaharsozlik madaniyatida katta o'zgarishlar kechadi.

Farg'ona vodiysining boshqa yodgorliklaridan yana biri Sho'rabashot dehqonchilik madaniyatidir. Sho'rabashot (Shoroboshot) dehqonchilik madaniyati Qoradaryoning irmoqlaridan biri Yassi daryosining o'ng qirg'og'ida, O'zgan shahridan to'g'ri chiziq bo'ylab 8 kilometr uzoqlikda Qirg'iz Respublikasi O'sh viloyati O'zgan tumani, "Shoroboshot" sovxozining Bo'ston uchastkasi hududida joylashgan [4. B – 116]. Qadimiy manzilgohdan 2-2,5 kilometr g'arbda Andijon suv ombori (yoki Kampiravat suv ombori) joylashgan.

Sho'rabashot yodgorligini mahalliy aholi (qirg'izlar, o'zbeklar, turklar) "To'rtkul" deb ham atashadi, bu qadimiy shahar xarobalari degan ma'noni anglatadi va bu toponimlar ta'rifiga mos keladi.

Ma'lumki, "to'rtko'l", "tyortkyol", "Do'rtko'l" atamalari turkiyzabon xalqlar yashaydigan Markaziy Osiyoning deyarli butun hududida ma'lum. Masalan, Qozog'iston (Chimkent), O'zbekiston (Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo va boshqalar), Qirg'iz (Laylak, Tyan-Shan), Qoraqalpog'iston (viloyat va shahar). Xorazmdagi toponimlar xulosasiga ko'ra, hozir ham maydon "to'rtko'l" deb ataladi, ya'ni qadimiy mustahkamlangan hudud ma'nosini bildiradi.

Ayrim turkiy xalqlar to'rtburchak shaklidagi qadimiy yodgorliklarni "Do'rtko'l" yoki "Tyortkyol" deb ataydilar. Tyan-Shanda mahalliy aholi barcha qadimiy manzilgoh va aholi punktlari xarobalarini To'rtko'l deb ataydi. Professor K.K. Yudaxinning fikriga ko'ra "Dalvarzin" (O'zbekiston), "Dilberdjün" (Afg'oniston), "Dilvarzin" (Tojikiston), "Dolberdjün" (Qirg'iz) atamalari mo'g'ulcha "Dolbordjun" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, forscha "Chaldivor" va turkiy "To'rtko'l" suzlari bilan bir xil semantik ma'noga ega. "Shoroboshot" ikkinchi ma'nosiga kelsak, qirg'iz tilida sho'r (ishqoriy) yer boshlanadigan joy ma'nosini bildiradi.

Sho'rabashot arxeologik yodgorligi miloddan avvalgi IV-I asrlarga oid bo'lib, birinchi marta 1954-yilda Janubiy Qirg'iz otryadi tomonidan topilgan va 1954-1957-yillarda ular tomonidan yodgorlikning barcha qismlari tadqiqotlari amalga oshirilgan. Umuman olganda, yodgorlikning 21 nuqtasida qazish ishlari olib borilib, bu yerda Sho'rabashot hayotining barcha bosqichlarini qamrab olgan katta hajmdagi materiallar olingan [4. B – 119].

Shaharning o'lchamlari katta: 1400 x 510 kv.m., ya'ni 70 gektardan ortiq.

Uch qismdan iborat:

Sho'rabashot I - aholi uchun boshpana va chorva qo'rasi bo'lib xizmat qilgan; Sho'rabashot II - asosiy turar-joy qismi;

Sho'rabashot III - qal'a-ark [5. B – 10].

1954-yilda yuqoridagilardan faqat Sho'rabashot III qal'asi saqlanib qolgan edi. Qolgan qismlari 1989-yilda qishloq xo'jaligi ishlari paytida butunlay yoki deyarli vayron qilingan. Hozirgi vaqtda shimoliy mudofaa devorining shimoliy-sharqiy qismi yakka tartibdagi uy-joy uchastkalarini qurish uchun foydalanilmoqda. Tadqiqot obyektlari qal'adagi hududlar edi. Bu yerda ikki joyda stratigrafik shurflar solingan.

1993-yili 1-shurf B.X.Matboboev tomonidan sonli chuqur Sho'rabashot III ning janubiy qismida, Yu.A.Zadneprovskiyning qazishmalaridan 30 m. janubi-g'arbida solingan. O'lchamlari 4x4m. Ular 1 m. 65 sm. chuqurlikda, chunki qishloq xo'jaligi ishlari davomida keyingi madaniy

TARIX

qatlamlar buzilgan. Bu yerda turli davrlarga oid, Sho'rabashot davridan boshlab to IX-X asrlarga oid kulolchilik buyumlarini uchratish mumkin [6. B – 12].

1993-yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu tepaliklarining eng baland nuqtasiga qadar balandligi 10 m. dan oshadi. Agar 1957-yilda qo'rg'ondagi tepalikning balandligi 12 m. bo'lganini inobatga olsak [5. B – 16], madaniy qatlamining ikki metrqa yaqin qismi buzib tashlanganligi ma'lum bo'ladi. Yodgorlikning mutlaq balandligi, albatta, 12 m. dan ortiq edi.

Demak, Sho'rabashot yodgorligi maydoni kattaligi mahobati bilan xitoy manbalarida tilga olingan Yu(Yuchen) bilan qiyoslanadi. Farg'ona vodiysining tarixiy shaharlari ham o'z taraqqiyoti mobaynida Markaziy Osiyo urbanizasiya markazlariga xos bo'lgan tadrijiy yo'lni bosib o'tdilar.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Sho'rabashot yodgorligida olib borilgan tadqiqotlardan bronza davridan boshlab kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Qadimgi shaharlar tarkib topishi, albatta, aholining o'troq dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq bo'lib, dehqonchilik vohalarining markazlari sifatida shaharlar qad ko'targan. Bu davrga kelib, O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o'zgarish jarayonlari bo'lib o'tdi. Bu davrda jamiyat hayotidagi sodir bo'lgan turli taraqqiyot jarayonlari kishilik tarixida muhim bosqich bo'lgan davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun ulkan ahamiyat kasb etdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Матбобоев Б.Х., Машрабов З.З. Андижон тарихи. Тошкент.: 2014. – Б. 260.
2. Машрабов З., Матбобоев Б. Фарғона водийси тарихига чизгилар. Андижон. 2022.
3. Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд. 1993. С.10.
4. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. – М. –Л. 1962. – С.115.
5. Заднепровский Ю.А. Археологические памятники южных районов Ошской области. Фрунзе. 1960. – С.10-11.
6. Б.Х. Matboboyev., B.Amanboyeva. 1993 yili Sho'rabashot shahar xarobasida olib borilgan ishlar hisoboti. Samarqand arxeologiya instituti.